

## Qamchiq dovonidagi yo'lning holati qanday!

---



**A-373 "M-39 Guliston-Bo'ka-Angren-Qo'qon-Andijon orqali-O'sh" avtomobil yo'lining Qamchiq dovonidan o'tgan qismida vaqti-vaqti bilan qor yog'moqda.**

Qor yog'ib turgan paytda dovonda transport vositalarining beto'xtov ikki tomonlama harakatlanishi ta'minlash uchun "Qamchiqavtoyol" IYFUK tomonidan tunu-kun yo'llarni qordan tozalash ishlarini bajarilmoqda.

Hozirgi vaqtda transport vositalari ikki tomonlama xavfsiz harakatlanmoqda. Qor, tuman. yo'llarda ko'rinish holati 100 metrni, havo harorati -10 daraja, namlik 85 foizni tashkil etmoqda. Shamol tezligi – 4-10 m/s. "Qamchiq" dovoni yo'lidan yuradigan haydovchilardan barcha xavfsizlik choralarini ko'rishlarini tavsiya qilib qolamiz.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Axborot xizmati